

## EPIK JANRLARNING XORIJDA O‘RGANILISHI MASALALARI

**Dilafro‘z Qalandarova,**

*Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek adabiyoti  
va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti,  
filol.f.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya.** Maqolada Karl Rayxl – o‘zbek folklorshunoslarining ilmiy ishlaridan keng foydalangan va o‘z tadqiqotlarida ularga ingliz va nemis tillarida keng munosabat bildirgan taniqli turkshunoslardan biri ekani, uning o‘zbek folklori tarjimoni va tadqiqotchisi sifatidagi faoliyati, nemis va ingliz tillarida amalga oshirgan tarjimalari, yaratgan ilmiy tadqiqotlarining mazmun-mohiyati, mundariyasi, tuzilishi haqida fikr yuritilgan. Olimning qiyosiy tahlil asosida turkiy xalqlar og‘zaki ijodi namunalari orasidagi o‘xshashlik va farqlarni yorqin ifodalovchi aniq va qiziqarli ma’lumotlari bayon etilgan. Jahon folklorshunosligida o‘zbek folkloriga qiyosiy yondashuv asoslari hamda usullari Karl Rayxlning ingliz tilidagi tarjima va tadqiqotlari misolida aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** folklor, o‘zbek folklori, Karl Rayxl, tarjimon, tarjima, tadqiqotchi, epos, turk eposi, doston, baxshi.

**Ключевые слова:** фольклор, узбекская фольклор, Карл Райхл, переводчик, перевод, исследователь, эпос, турецкая эпос, дастан, сказател.

**Keywords:** folklor, Uzbek folklore, Karl Reichl, translator, translation, researcher, epos, Turkish epos, epic, bakhshi.

Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek folklori namunalari qadimdan hozirgacha ko‘plab yevropa mamlakatlari olimlarining alohida diqqatini tortib, ularning e’tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda. Bu borada mashhur adabiyotshunos, folklorshunos olimlar Herman Vamberi, Anna Luiza Strong, Korlis Lamont, G.M.Shulbrayt, N.Chadvik, Idris Shoh, M.Boura, Hasan Paksoy, Karl Rayxl, Volter Feldman, M.Petersen, F.Adams, Daniel Priori kabi olimlarning sohaga oid tarjima va tadqiqotlari o‘ta qimmatlidir.

Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi tarixi, madaniyati va san’atiga qiziqish yevropada ko‘pdan mavjud. Uning tarixi juda uzoq zamonlarga borib taqaladi. Bu qiziqish doimiy tadrijiy takomil topib borgan. Aytaylik, Turkiston tarixi, qadimgi urf-odat va an’analari, folkloriga oid materiallarni to‘plagan H.Vamberining tajribalari keyinchalik N.Ostroumov, A.Borovkov, M.Gavrilov, M.Andreev, R.Radlov, V.M.Jirmunskiy, V.Feldman, K.Rayxl kabi olimlar qiziqishi uyg‘onishiga ham turtki bo‘lgani ma’lum [1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12].

AQShning Pensilvaniya universiteti professori Volter Feldman 1980-yil Kolumbiya universitetida “XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida o‘zbek xalq og‘zaki dostonlari” mavzusidagi PhD dissertatsiyasini yoqlagan. Uning tadqiqotida “Alpomish” dostonining Sherobod dostonchilik maktabidagi “Alpomishning

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

qaytishi” parchasining ikki varianti: o‘zbek xalq og‘zaki dostonining hozirgi ijro jarayonlari haqida fikr yuritilgan.

Ushbu tadqiqotda doston nomi bilan mashhur bo‘lgan o‘zbek og‘zaki she‘riy janri matn tarkibi va uning nazmiy uslubi masalalariga oydinlik kiritishga harakat qilingan. To‘rtta qisqa og‘zaki she‘riy matnlarga e‘tibor qaratilgan. Ular 1990-yilning may va 1991-yilning iyun oylarida To‘ra Mirzayev rahbarlik qilgan folklor ekspeditsiyasi davrida Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida bitta bard (baxshi, olim tadqiqotlarida baxshilarni bard nomi bilan atagan – D.Q.) Qahhor Rahimov tomonidan kuylangan [11].

Mutaxassisligi bo‘yicha ingliz tili va adabiyoti o‘qituvchisi bo‘lgan Karl Rayxl taqdir taqazosi bilan 1958-yilda V.Jirmunskiy va H.Zarifovlarning “O‘zbek qahramonlik eposi” degan kitobining doktor Fleysler tomonidan nemis tilida o‘girilgan hamda Germaniyada chop etilgan qisqacha bayoni bilan tanishadi. Xuddi shu tanishuv unga yangi bir sohani egallash uchun turtki bo‘ladi. Mana shu kitob uning taqdirini tubdan o‘zgartirib yuboradi. Shundan so‘ng olim o‘zbek folklori, tarixi, urf-odat va an‘analariga qiziqib, shu qiziqishi tufayli o‘zbek folklori bilan jiddiy shug‘ullana boshlaydi. Dastavval mustaqil ravishda o‘zbek tilini o‘rganadi. Keyinchalik bu o‘rganganlarini tarjima qilish ishlari orqali mustahkamlab boradi.

Folklorshunos olim, akademik To‘ra Mirzayev aytganidek, “Karl Rayxl qandaydir siyosiy maqsadlar yoki o‘tkinchi bir havas bilan o‘zbek folklorini o‘rganishga kirishgan emas, balki uni bu yo‘lga o‘zining qiyosiy tekshirishlariga keng imkoniyat ochishga intilishi, qadimgi grek, german, fransuz, kelt eposlarini har tomonlama o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj undadi. Uning tadqiqotlaridagi uzviylik va uzluksizlik shunday xulosa chiqarishga to‘la asos beradi” [13, 17-20].

Biz ham olim bilan shaxsan uchrashib tanishib, undan “Aynan Markaziy Osiyo xalqlari folklorini o‘rganishingizning sababi nimada?”, deb so‘raganimizda, u shunday javob berdi: “Albatta, buning ham ilmiy, ham shaxsiy tomonlari bor. Dastlab men G‘arb adabiyoti va Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotini qiyosiy tarzda o‘rganmoqchi edim. Aslida turk xalqlari og‘zaki ijodiga qiziqishim bor edi”.

Mazkur qiziqishi sababli olim dastlab shu davlatlarga borishni ko‘zlagan. U bormoqchi bo‘lgan mamlakatining tilini bilishi, o‘sha yurt ilm kishilari va og‘zaki bayon qiluvchilari bilan aloqada bo‘lishi lozimligini anglab, zudlik bilan til o‘rganishga kirishgan. “...va men bu borada juda omadliman. Chunki 1981-yilda men birinchi bor O‘zbekistonga tashrif buyurdim. Bo‘kada Chori shoir (baxshi)dan “Alpomish” va “Ravshan” dostonlarini yozib olishga muvaffaq bo‘ldim. Aynan shu tarzda men og‘zaki ijodga kirib keldim. Ijro jarayonida baxshi sizga hech narsani



# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

biror joyga qarab o‘qib bermaydi, balki ijrosi (mimikalari) bilan o‘z auditoriyasini sehrlab oladi”, – deydi olim u bilan bo‘lgan suhbatimizda.

Karl Rayxl tadqiqotlarini dastlab o‘zbek folkloriga qaratganini aytadi. “O‘zbek folklorini o‘rganish jarayoni bilan bog‘liq hodisalar, davrlar mening hayotimning bir tarixiga aylanib qolgan. Keyinchalik qoraqalpoq, turkman, qirg‘iz xalqlari xalq og‘zaki ijodiga ham qiziqishim ortdi. “Edigey”, “Manas” dostonlarini ingliz va nemis tillariga o‘girdim. Bularning ichidan qoraqalpoq folkloriga mehrim o‘zgacha va o‘ylashimcha, tadqiqotlarimning ham kattagina qismi aynan shu xalq og‘zaki ijodiga tegishli”.

Umuman olganda, Karl Rayxlning o‘zbek folkloriga qiziqishi ham tarjimonlik, ham tadqiqotchilik faoliyati orqali namoyon bo‘ladi. Ilmiy izlanishlari sohasi epik asarlar tadqiqi, sharqshunoslik, turkologiya, manasshunoslik, tarjima, qirg‘izshunoslik yo‘nalishlariga bag‘ishlangan professor Karl Rayxl dunyoning turli ilmiy jurnal va to‘plamlarida 90 dan ortiq ilmiy maqolalarini e‘lon qilgan. Ularning aksariyati o‘rta asrlar tarixi, tilshunoslik, turkiy xalqlarning folklor merosi, ayrim shoirlar ijodi tadqiqiga bag‘ishlangan. Karl Rayxlning dunyoning turli ensiklopediyalarida 60 dan ortiq maqolalari nashr etildi. Olim 96 ta ilmiy kitob muallifi.

Karl Rayxl o‘zbek baxshilari, dostonlari borasida ham qator tadqiqotlar olib borgan. Uning 1992-yilda yaratgan “Turkiy xalqlar qahramonlik eposi” nomli tadqiqoti Nyu-Yorkda ingliz tilida bosilib chiqqan [7,395]. Bu kitobda ko‘proq baxshichilik an‘analari, turkiy xalqlar qahramonlik eposining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, kitobda olim turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalq qahramonlik eposi, uni ijro etishda baxshilar mahorati, tana harakatlari, doston aytish usullari va musiqa asboblarning o‘rnigacha sinchkovlik bilan alohida e‘tibor qaratgan. Ularni yevropa xalqlari eposi bilan solishtirishga uringan. Olimning bu izlanishlari esa qiyosiy folklorshunoslikni rivojlantirishda o‘z o‘rniga ega, albatta.

Xulosa qilib aytganda, Karl Rayxl – taniqli nemis filologi, sharqshunos, turkolog olimlaridan biri. Uning epik ijod, xususan, “Manas” tadqiqotchisi sifatidagi faoliyati alohida ajralib turadi. Karl Rayxl nafaqat folklorshunos, balki uning tilshunoslik, adabiyotshunoslik sohalarida amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlari, jahon xalqlari og‘zaki ijodidan amalga oshirgan tarjimalari, ularning so‘z, matn va musiqa uchligi bilan bog‘liqligi yuzasidan ilgari surgan qarashlari juda qimmatlidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vambery A. Scenes from the East (Through the Eyes of a European traveler in 1860), Corvina, Kiads, - Budapest, 1979. – 418 r.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2. Vambery A. Sketches of Central Asia. – London, 1868. – 444 r.
3. Vambery A. Travels in Central Asia. – London, 1996. – 443 r.
4. Lamont C. The Peoples of the Soviet Union. – New York, 1946. – 229 r.
5. Shah I. The Pleasantries of Incredible Mulla Nasrutdin. – London, 1974; Bowra C. Heroic Poetry. London, 1961. – 808 r.
6. Paksoy H.B. “Alpamysh” Central Asian Identity under Russian Rule”, USA, AACAR, 1989. – 683 r.
7. Reichl Karl. Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure. Garland Publishing, inc. – New York & London, 1992. – 395 r.
8. Uzbekische Maerchen. Herausgegeben und uebersetzt von Karl Reichl. – Bochum, 1978.
9. Maerchen der Usbeken: Samarkand, Buhara, Taschkent. Herausgegeben und uebersetzt von I.L. Cirtautas. Koeln, 1984.
10. Reichl K. Uzbek Epic Poetry: Traditions and Poetic Diction. – Hainsworth, 1989.
11. Walter Feldman. “The Uzbek Oral Epic: Documentation of Late Nineteenth Century and Early Twentieth Century Bards.” ... Ph.D. Dissertation. – USA, 1980.
12. Petersen Marilyn. Treasury of Uzbek Legends and Lore. – Toshkent: Qatortol-Kamolot, 2000. – 180 b.
13. Mirzayev T. Karl Rayxl – o‘zbek folklori tadqiqotchisi. – O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2013. – №4. – B.17-20;
14. Mirzayev T. Karl Rayxl – o‘zbek folklori tadqiqotchisi. – To‘ra Mirzayev. Ustozlar. Safdoshlar. Izdoshlar. – Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2021. – B.370-378.
15. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
16. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
17. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.